O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy rivojlantirish maqsadida investitsion jarayonlarni moliyalashning bozor mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish iqtisodiy taraqqiyotning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida keltirilgan asosiy g‘oya va takliflarda, “Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda

1 www.worldbank.org/annualreport Ворлд Банк Групп / Аннуал Репортс 2020, п. 4. Эхесутиве Суммары.



jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda. Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi² deb, ta'kidlab o'tganlari bejiz emas.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, tanlab olish va amalga oshirishning muntazam, tugal bir tizimini shakllantirishga to'g'ri keladi. Bunda investitsiya loyihalarini baholash va tahlil qilishda jahon mamlakatlarida qabul qilingan standart uslubga asoslanish kerak. Eng muhimi, investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va amalga oshirishda, bizning nazarimizda, investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilishga, jalb qilinadigan resurslar qiymatini baholashga e'tibor qaratilishi kerak. Shu bilan birga, noma'lumliklarni tahlil qilish, risklarni kamaytirish va ularni kreditlash ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash masalalariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Y.Mirkinning fikriga ko'ra, investitsiyalarni kreditlashning real, istiqbolli shakli kompaniyalarning jamg'armalarini ikkilamchi bozordagi aksionerlik kapitaliga joylashtirishni ko'paytirish hisoblanadi, ammo investitsiyalarni kreditlashning bu manbaining darajasi juda past³.

Taniqli iqtisodchi olimlardan yana biri – U.Sharp ham investitsion faoliyatni fond bozori orqali kreditlash mexanizmiga alohida e'tibor beradi. Uning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqadorlikka asoslangan oqilona investitsion strategiya investitsion faoliyatni kreditlashning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozorida qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi⁴.

Bizning fikrimizcha, Y.Mirkinning fond bozori orqali investitsion faoliyatni kreditlash mexanizmi xususidagi fikri ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, MDH mamlakatlarida korporativ aksiya va obligatsiyalarga qilinadigan investitsiyalarning risk darajasi yuqori ekanligi va investorlarga bo'lgan ishonchning pastligi fond bozori rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar ekanligi bir qator ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan.

U.Sharpting investitsion faoliyatni kreditlashda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikri amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular investitsion faoliyatni kreditlashning faol subyektlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan prof. D.G'ozibekovning ilmiy izlanishlarida investitsiyalarni kreditlash bozor mexanizmlarining ayrim elementlari tahlil qilingan. Prof. D.G'ozibekovning fikriga ko'ra "Investitsiyalarni kreditlash jarayonida bank kreditining rolini oshishi kreditlash natijalari uchun korxonalar mas'uliyatini kuchaytiradi, chunki kreditning ahamiyati oshishi bilan, bank kredit risklari majmuining darajasi oshadi. Shuning uchun davlat korxonalariga nisbatan davlat budjetidan investitsiya ajratishni, belgilangan va past darajadagi imtiyozli foiz stavkalari asosida davlat moliya institutlari tizimi tomonidan boshqariladigan arzon kreditga aylantirilib, uni tender asosida taqsimlash bozor talabiga mos keladi"⁵.

Ko'rinib turibdiki, prof. D.G'ozibekov bank kreditini muhim ahamiyatga ega bo'lgan investitsion kreditlash manbai sifatida e'tirof etayapti. Biz, bu fikrga to'liq qo'shilamiz. Chunki, kreditning qaytarib berishlilik va foiz to'lashlilik prinsiplari undan foydalanuvchilarni olingan kreditdan samarali foydalanishga majbur qiladi. Ammo, D.G'ozibekovning davlat korxonalariga belgilangan va past imtiyozli stavkalarda arzon kreditlar ajratish va ularni tender asosida taqsimlash xususidagi taklifi fikrimizcha, munozaralidir. Buning sababi shundaki, birinchidan, davlat korxonalariga imtiyozli foiz stavkalarida kreditlarning berilishi xususiy korxonalarni ularga nisbatan nomutanosib raqobat muhitiga tushirib qo'yadi; ikkinchidan, kredit resurslarning harakatini tartibga soluvchi regulyator bo'lib, ularning bozor stavkasi hisoblanadi va bu stavka milliy ssuda kapitallari bozorida shakllanadi. Shu sababli, kreditlarni tender asosida taqsimlash maqsadga muvofiq emas.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, moliyaviy tahlil usullari va statistik usullardan hamda ekspert baholash usulidan foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqotni amalga oshirishda xalqaro moliya-kredit tashkilotlari ekspertlarining empirik tadqiqotlari natijalaridan foydalanilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.,

3 Миркин Я. "Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития". -М.: Альпина Паблишер, 2018.-с.117.

4 Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ.-М.: ИНФРА-М, 2016. – с. 9-10.

5 G'ozibekov D.G'. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2002. 27- bet.



NATIJALAR

Milliy valyuta almashuv kursining pasayishi natijasida investitsion loyihalarni amalga oshirishda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ichki bozorda sotishdan tushgan milliy valyutadagi pul tushumlari xorijiy valyutalarda olingan investitsion kreditni qaytarishga yetmaydi. Natijada, bir tomondan, investitsion loyihani kreditlashdagi kredit riski kuchayadi, ikkinchi tomondan, investitsion daromadning pasayish riski kuchayadi.

Inflyatsiya darajasining oshishi mamlakatning eksport salohiyatiga, shu jumladan, investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksportga sotish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, inflyatsiyaning oshishi natijasida eksport qilinayotgan mahsulotlarning bahosi oshadi, bu esa, ularning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Natijada, eksport tushumi kamayadi va bu holat investitsion kreditning o'z vaqtida qaytarilmasligiga, investitsion loyiha samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Investitsiyalarni kreditlashning bozor mexanizmlari majmuining asosini quyidagilar tashkil etadi:

- qimmatli qog'ozlar;
- xorijiy investitsiyalar;
- tijorat banklari va xalqaro moliya institutlar mablag'lari hisobidan ulush qo'shish orqali kreditlash mexanizmi yoki kredit liniyalari;
- sinditsiyalashtirilgan kreditlar;
- investitsiyalarni loyihaviy kreditlash;
- venchurli;
- korporativ;
- lizing orqali kreditlash kabi mexanizmlar majmui hisobiga amalga oshiriladi.

Shuningdek, investitsiyalarni kreditlashning bozor mexanizmlariga xos bo'lgan aralash shakldagi kreditlash, xo'jalik subyektlari va aholining bo'sh mablag'larini to'g'ridan to'g'ri investitsiya obyektiga yo'naltirish, budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari evaziga kreditlash kabilarni ham kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tijorat banklari uchun investitsiya loyihalarini ichki manbalar hisobidan kreditlashda nisbatan ustuvor imkoniyatlar mujassamlashgan bo'lib, tashqi manbalardan jalb qilingan resursdan foydalanish birmuncha noqulay vaziyatlarni yuzaga keltirishi ham mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida, investitsiya loyihalarini kreditlash manbalarining qiyosiy tavsifi tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval: Investitsiya loyihalarini kreditlash manbalarining qiyosiy tavsifi⁶

Moliyalashtirish manbalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Ichki manbalar (o'z kapitali)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sarflashning qulayligi va tezligi. 2. To'lov qobiliyatsizligi va bankrotlik xavfini kamaytirishi. 3. Jalb qilingan manbalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish majburiyati yo'qligi sababli yuqori rentabellik. 4. Ta'sisчилarga egalik qilish va ularni boshqarish 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Olingan mablag'larning cheklangan miqdori. 2. O'z mablag'larini iqtisodiy aylanmadan yo'naltirish. 3. Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi cheklangan mustaqil nazorat
Tashqi manbalar (jalb qilingan kapital)	<ol style="list-style-type: none"> 1. Katta miqyosda mablag' to'plash imkoniyati. 2. Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ustidan mustaqil nazorat mavjudligi 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Pul mablag'larini to'plash tartibining murakkabligi va davomiyligi. 2. Moliyaviy barqarorlikning kafolatlarini ta'minlash zaruriyati. 3. To'lov qobiliyatsizligi va bankrotlik xavfining oshishi. 4. Jalb qilingan manbalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish zarurati tufayli foydaning kamayishi.

6 Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Investitsiya loyihalarini kreditlash manbalarini tanlash nafaqat investitsiya faoliyatining hayotiyligini, balki undan keladigan yakuniy daromadning taqsimlashni, ilg'or kapitaldan foydalanish samaradorligini va investitsiyalarni amalga oshiradigan tashkilotning moliyaviy barqarorligini ham belgilaydi. Investitsiyalarni kreditlash manbalarining tarkibi va tuzilishi jamiyatning faoliyat mexanizmiga bog'liq.

Har qanday tashkilot tomonidan qilingan investitsiyalar bir qator mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin:

1. Investitsiya faoliyati subyektiga nisbatan jalb qilish usuliga muvofiq ichki va tashqi manbalardan jalb qilingan investitsiya manbalariga ajratiladi.
2. Shakllantirilishiga ko'ra, kapital egalari ichki va xorijiy kapital hisobiga shakllantirilgan investitsiya resurslarini taqsimlaydilar.

Ichki kapital hisobidan shakllantirilgan investitsiya resurslari xilma-xil shakllarda farqlanadi va qoida tariqasida kichik biznes uchun qulayroqdir.

3. Mulk huquqiga ko'ra investitsiya mablag'lari ikkita asosiy turga bo'linadi – shaxsiy va qarzga olingan:
 - investitsiyalarning o'z manbalari tashkilotning investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan va unga tegishli bo'lgan mablag'larining umumiy qiymatini tavsiflaydi;
 - investitsiyalarning qarz manbalari tashkilot tomonidan jalb qilingan kapitalni barcha shakllarda qaytariladigan asosda tavsiflaydi.
4. Jalb qilishning tabiiy-moddiy shakllariga ko'ra, zamonaviy investitsiya nazariyasi investitsiya manbalarining quyidagi turlarini ajratib turadi:
 - investitsiya resurslari pul shaklida;
 - moliyaviy shaklda investitsiya manbalari;
 - moddiy investitsiya resurslari;
 - nomoddiy shaklda investitsiya resurslari.

Ushbu shakllarda sarmoyalarni jalb qilishga qonun tomonidan yangi tashkilotlar tuzishda, ularning ustav fondlari hajmini ko'paytirishda ruxsat beriladi.


5. Jalb qilish vaqtiga ko'ra investitsiya manbalarining quyidagi turlari ajratiladi:
 - uzoq muddatli asosda jalb qilingan investitsiya manbalari. Ular o'z kapitali va bir yildan ortiq muddatli qarz kapitalidan iborat. Tashkilot tomonidan investitsiya maqsadlari uchun shakllantirilgan o'z va uzoq muddatli qarz mablag'larining yig'indisi "doimiy kapital" atamasi bilan tavsiflanadi;
 - qisqa muddatli asosda jalb qilingan investitsiya manbalari. Ular vaqtincha investitsiya ehtiyojlarini qondirish uchun tashkilot tomonidan bir yilgacha tuziladi.
6. Foydalanishning maqsadli yo'nalishlari bo'yicha quyidagilar mavjud:
 - real investitsiyalar jarayonida foydalanishga mo'ljallangan investitsiya manbalari. Ularning hajmi va tuzilishi tashkilotning investitsiya dasturi doirasida har bir real loyiha uchun alohida rejalashtirilgan;
 - moliyaviy investitsiyalar jarayonida foydalanishga mo'ljallangan investitsiya manbalari. Ularni jalb qilish tashkilotning moliyaviy investitsiya vositalari portfelini shakllantirish yoki qayta qurish maqsadlariga bo'ysunadi.
7. Investitsiya jarayonining individual bosqichlarini ta'minlash. Shu asosda investitsion manbalarning quyidagi turlari ajratiladi:
 - investitsiyalardan oldingi bosqichni ta'minlaydigan investitsiya manbalari;
 - investitsiya bosqichini ta'minlaydigan investitsiya manbalari;
 - investitsiyadan keyingi bosqichni ta'minlaydigan investitsiya manbalari.

Investitsion resurslarning ushbu taqsimoti faqat real investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash jarayonida qo'llaniladi.

Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini turli manbalar hisobidan ta'minlash asosida iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlashning tarkibi va dinamikasini tahlil qilgan holda tarmoqlarning rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish holatiga qanchalik bog'langanligini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, ularni jalb etishga



intilish natijasi jalb etish sur'atlari bilan bevosita bog'liqligi ham kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib tadqiqot ishida investitsiya faoliyatini kreditlash usullari tizimlashtirildi (1-rasm).



1-rasm: Investitsiya faoliyatini kreditlashning an'anviy usullari⁷

Amaldagi kreditlash manbalarining har biri ma'lum afzalliklar va kamchiliklarga ega. Shu sababli har qanday investitsiya loyhasini amalga oshirish kreditlash strategiyasini asoslashni, kreditlashning alternativ usullari va manbalarini tahlil qilishni, kreditlash sxemasini puxta ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqilgan kreditlash sxemasi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- umuman investitsiya loyhasini amalga oshirish uchun va hisob-kitob davrining har bir bosqichida yetarli miqdordagi investitsiyalar;
- investitsiyalarni kreditlash manbalari tarkibini optimallashtirish;
- kapital xarajatlar va investitsiya loyihalari xavfini kamaytirish.

Investorlarning milliy iqtisodiyotga mablag' kiritishi ko'p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatga ham bog'liq. Investorlar mablag' yo'naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investitsion riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda⁸.

Xalqaro amaliyotda loyihalarni kreditlash deganda investitsiyalarning qaytarilishini ta'minlashning o'ziga xos usuli bilan tavsiflanadigan, loyihaning o'zi, kelajakda yangi tashkil etilayotgan yoki qayta tashkil etilgan korxonaning daromadlari, investitsion fazilatlariga asoslangan investitsiya loyihalarini kreditlash tushuniladi. Loyihani kreditlashning o'ziga xos mexanizmi investitsiya loyhasining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini tahlil qilish va ular bilan bog'liq xavflarni baholashni o'z ichiga oladi va investitsiyalar daromadlilikini uchun barcha xarajatlar qoplangandan keyin qolgan daromadlar kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

Respublikamizda loyihaviy kreditlashni sekin rivojlanayotganligi, fikrimizcha, investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi xatoliklarning mavjudligi, loyihalarni samaradorligini pasaytiradigan omillarning

⁷ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁸ Makhmudov S.B. Ways of the investment environment effect in financing investment activities development. // Indo – Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR)/Volume – 6; Issue – 3; 2020. Page 2045 – 2053.



yuzaga kelganligi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilinmaganligi kabi omillarning mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini kreditlashda ularni kompleks ekspertiza qilishdagi muammolarni umumlashtirib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya loyihasi (mahsulotlar bozori) bo'yicha marketing izlanishlarining chuqur olib borilmasligi va bu loyihaning kelgusidagi pul oqimlari harakatining barqarorligiga hamda kreditni qaytarish manbasining ishonchsizligiga salbiy ta'sir etishi;
- ba'zi hollarda, O'zbekiston fuqarolari o'z shaxsiy manfaatlarini yo'lida hujjatlarni soxtalashtirish, oldindan xorijiy sheriklar bilan kelishilgan holda jismonan yoki ma'naviy eskirgan va zamon talablariga mutlaqo javob bermaydigan texnika-texnologiyalarni olib kelayotganliklari yohud ularning narxlarini oshirib yuborayotganliklari;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida ko'zlangan daromadning (loyiha bo'yicha pul kiritilishi) o'z vaqtida kelib tushmaslik riskining mavjudligi va bunday risklarning omillari ishlab chiqarish jarayoni va mahsulotni sotish bilan, xaridorlar bilan o'zaro hisob-kitoblar bilan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi yoki mavsumiy tebranishlar bilan bog'liq bo'lishi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilish ishlarining xolisona bo'lmasligi va bu holat loyihaning kelgusi taqdiriga salbiy ta'sir etishi;
- amaliyotda investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda bilim va tajribalarning to'liq egallanmaganligi va o'zlashtirilmaganligi; investitsiya loyihasi samaradorligini baholash ishlari faqat banklar va ayrim sanoqli tashkilotlar tomonidan olib borilishi, boshqa manfaatdor subyektlarning esa hali bu yangilikni qabul qila olishga mos bilim va tushunchalari yetarli emasligi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda chet elda ishlab chiqilgan uslubiyotlardan ko'rkona foydalanishlik va o'zimizning ichki va milliy xususiyatlarimiz kabilarga ko'proq e'tibor berilmasligi; xom ashyoni yetkazib berish va mahsulotlarni sotish bozorlarida marketing tadqiqotlarning to'liq va xaqiqiy olib borilmasligi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishda malakali va yosh mutaxassislarining yetishmasligi, ularga bo'lgan biroz e'tiborsizlik; ayrim loyihalarda xaqiqiy bo'lmagan, lekin yaxshi natijalar beruvchi raqam va ko'rsatkichlarning ko'rsatilishi;
- tahlil ishlarida bank mutaxassislarining o'zlari ham ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishi, tahlil dasturini yaxshi tushunmasligi va kelib chiqish sabablarini o'zlari ham to'liq bilmamasligi va h.k.

Respublikamizda investitsiya loyihalarini kreditlash maqsadida sarflangan mablag'larning o'zini oqlamasligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarida ishlab chiqarish jarayonining xorijdan keltiriladigan xom-ashyolarga juda bog'liqligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga talab yo'qligi;
- investitsiya loyihasida belgilangan quvvatda ishlashni ta'minlanmaganligi;
- ayrim korxonalarining xom-ashyo bazasi bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- qator investitsiya loyihalarida xorijiy valyutada qaytarilishi ko'zda tutilgan bo'lsada, amalda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilinmagan yoki juda kam eksport qilinganligi;
- ayrim investitsiya loyihalarida xorijiy ta'sischi ishlab chiqarilishi mo'ljallanayotgan mahsulotni sotib olish majburiyatini olgan holda bitim tuzishgan. Ammo mahsulotlar ishlab chiqarilgandan so'ng olingan majburiyat bajarilmagan.
- qurilgan ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilmaganligi.

Investitsiya loyihalarini kreditlashdagi kredit riski va valyuta riskini boshqarish tizimini takomillashmaganligini alohida e'tirof etish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. www.worldbank.org/annualreport World Bank Group / Annual Reports 2020, p. 4. Executive Summary.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T., "O'zbekiston"–2019.
3. Миркин Я. "Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития".-М.:Альпина Паблишер, 2018.–с.117.
4. Шарп У. и др. Инвестиции. Пер. с англ.–М.: ИНФРА-М, 2016. – с. 9-10.



5. G'ozibekov D.G'. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2002. –27-bet.
6. Muallif tomonidan tizimlashtirilgan.
7. Haydarov O'.A. "O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning zamonaviy holati". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 2019-yil dekabr №6. 8-b., (08.00.00, №12).
8. Muallif tomonidan shakllantirilgan.
9. Хайдаров, У. А. (2020). Financial management system, tools, sources of investment activities and factors. // ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81).
10. Махмудов С.Б. Ways of the investment environment effect in financing investment activities development. // Indo – Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR)Volume – 6; Issue – 3; 2020. Page 2045 – 2053.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. T.2021. 11-b.
12. Muallif tomonidan shakllantirilgan.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2019-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. T.2020. 9-b.
14. Asakabank AJning rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
15. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi ma'lumotlari – https://invest.gov.uz/uz/investor/credit_lines.
16. Qo'ldoshev Q.M. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. –№ 2, 2019 y.
17. Razzaqov J.X. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2018. 12-b.
18. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.